

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKAUNIVERSITETI**

**Zamonaviy ta'lim va ma'naviy-axloqiy
tarbiyaning dolzarb masalalari**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

M A T E R I A L L A R I

2024 yil 17-oktyabr

**“Zamonaviy ta’lim va ma’naviy-axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari”
mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi.
Toshkent.: 2024 yil. 17-oktyabr.**

Mazkur to‘plamda respublikamiz OTM professor-o‘qituvchilarining ta’lim tizimi samaradorligini oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash: kecha va bugungi xolati, Tarbiya fani o‘qituvchisini tayorlashning huquqiy-me’yoriy asoslari, ta’lim muassasalarida Tarbiya fani o‘qituvchisini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, ta’lim-tarbiya jarayonida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning pedagogik va psixologik jihatlariga doir qarashlari va taklif-mulohazalar o‘z aksini topgan. Mazkur to‘plam materiallaridan ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, talabalar va sohaga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir: F.O. Mirzaeva – Pedagogika kafedrasini mudiri, dotsent

Tahrir hay’ati a’zolari:

Pedagogika fanlari doktori professor - **Sh.Shodmonova**

Pedagogika fanlari doktori professor - **A.Muxsiyeva**

Taqrizchilar:

M.B.Urazova – pedagogika fanlari doktori professor

M.T.Mirsoliyeva – pedagogika fanlari doktori, dotsent

Sahifalovchi - **G.X. Narzullayeva** - 1-kurs magistranti.

*Anjuman materiallari Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy Kengashining
2024 yil 17-oktyabrdagi 4 – sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya
etilgan.*

To‘plamga kiritilgan maqolalarning mazmuni, ilmiy salohiyati va dalillarning haqqoniyligi, stilistik va orfigrafik xatolar uchun mualliflar mas’ul.

asboblarida chalishga o'rgatishdan iborat. Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir.

Musiqa tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga urgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir kursatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va goyaviy-axloqiy tarbiyalashning muhim vositasidir. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir al-Forobiy «Bu fan tanning sogligi uchun foydalidir», degan edi. Bobomiz Shayx Sa'diy aytgan edi: «Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir». Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqa inson ruhiyatining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Musiqadan turli ozuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni his eta oladigan, o'z kasbiga, ona Vataniga mehr qo'ygan bo'lishi kerak.

Bo'lajak musiqa mutaxassislari yosh avlod ongiga yuksak tuyg'ularni singdirish, ularda ona-Vatanga muhabbat, go'zallikga intilib yashash, uni asrash va yaratishga bo'lgan ishtiyoq uyg'otuvchi kasb egalari hisoblanadilar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. –Toshkent, 2008.
2. Agar bolam sog'lom bo'lsin desangiz. D.Sharipova va boshqalar (Ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigiyenik tarbiyasi haqida) Metodik qo'llanma. –T., 2006.
3. G'aybullaeva M. Bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi. –Toshkent, 2006.

PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARI MAKTABGACHA TA'LIM TALABALARI O'RTASIDA MUSIQA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MEHANIZMLARI

Saidqulova Gavhar Odiljon qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Maktabgacha ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o'zbek xalqining boy musiqiy tarixi va ma'daniyati haqida so'z boradi. Musiqa sohasining azaliy qadriyatlardan zamonaviylik mezonlariga bo'lgan jarayonlarni faqatgina ohanglarda muhrlangan betakror

musiqiy asarlardagina anglash mumkin. Shu bilan birga xalq musiqasi va tafakkurining individual ijodiy munosabatlarining mahsuli o'rin olgan.

Kalit so'z: Musiqiy meros, folklor, mumtoz musiqa, maqom, qazilma, professional musiqa.

Musiqa xuddi sirli ummonga o'xshaydi. Musiqaning sirli dunyosiga kirgan odam uning mislsiz kuchga va tarixga ega ekanligini anglashi muqarrardir. O'zbek xalq musiqa san'ati o'zining milliy jarayonlarida o'ziga xos va mukammal darajada shakllangan betakror xalq va mumtoz musiqa merosiga ega. Dunyodagi har bir xalq o'zining qadimiy tarixiga ega bo'lgan musiqiy an'alariga egadir. Shular qatorida o'zbek musiqasi ham juda qadimiy va o'ziga xos an'alariga egadir. O'zbek musiqasi azaldan ikki ulkan yo'nalishda shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. Birinchi yo'nalish, bu xalq hayotiy voqeliklari bilan bog'lik bo'lgan folklor musiqasidir. Insoniyatning kundalik hayoti, mehnati va faoliyatini ko'satuvchi bu musiqadir. Folklor musiqasini to'rtta yo'nalishga ajratish mumkin.

Bular:

1. Bolalar musiqasi.
2. Mehnat qo'shiqlari.
3. Marosim qo'shiqlari.
4. Diniy, afsuniy qo'shiqlar.

Amaliyotda har bir yo'nalishga xos va voqelik bilan bog'lik bo'lgan janrlar vujudga kelgan. Ular asrlar davomida xalqning milliy an'alarida yuzaga kelgan. Bular-alla, yalla, lapar, terma, qo'shiq, aytishuv kabi janrlardir. Xalq folklor musiqasining asosiy xususiyatlaridan biri bu, folklor musiqasini xalq yaratadi, xalq tomonidan ijro etiladi va tinglanadi. O'zbek xalq musiqasi o'zining serqirrali, mazmunli shakli va janri bilan O'rta Osiyodagi Tojik, Turkman, Boshqird, Qirg'iz va boshqa xalqlarning musiqa madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Xalq tomonidan yaratilgan bu durdona asarlar asrlar osha mukammallashib va murakkablashib bizgacha yetib kelgan. Xalq qo'shiqlari bir ovozli bo'lishiga qaramasdan ajoyib kuy va turli usullarga ega bo'lgan o'zbek san'atining milliy xazinasidir.

Xar bir odam o'z xalqining milliy musiqasi va qo'shiqlaridan ruhiy quvvat olib voyaga yetadi. Musiqaning inson qalbiga, ongiga ta'sir kuchi va qudrati beqiyosdir. Ulug' allomalarimiz inson tarbiyasida, ma'naviyatini yuksaltirishda musiqaning ahamiyati naqadar yuksakligini doimo uqtirib kelishgan. Hozirgi paytda mamlakatimizda musiqa san'atini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbek degan juda qadimiy xalqning san'ati ham, adabiyoti ham buyuk. Buni xar bir inson chuqur tushunib, hurmat qilishi lozim. Bolaning ongi asosan besh-yetti yoshda shakllanishi inobatga olsak, aynan shu davrda uning qalbida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. O'sib kelayotgan

yosh avlodning ma'naviy dunyosini yuksaltirish haqida so'z borganda esa, qo'shiqlarning ro'li va ta'siri juda kata ekanligini tan olishimiz kerak. Buning uchun esa umumta'lim maktablaridagi musiqa darslarining soatini, musiqa to'garaklarining sonini va turini imkon qadar ko'paytirish kerak. O'tilayotgan dars va mashg'ulotlarni takomillashtirish, saviyasini jiddiy nazorat qilib borishga to'g'ri keladi. Natijada yoshlarimiz musiqiy janrlar va qo'shiqlarning badiiy, g'oyaviy jixatlaridan chuqurroq habardor bo'lib boradi. Xalqimiz azal-azaldan boy musiqiy merosga ega bo'lgan. Bebaho qadryatlarimiz, badiiy merosimiz, jaxonni xayratga solgan mumtoz musiqa san'atimiz mavjuddir. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmuni va yo'nalishi umuminsoniy qadryatlarning uyg'unligi asosida belgilanadi. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat, milliy mas'uliyat tuyg'usini angelaydigan o'quvchilarni tarbiyalab voyaga yetkazgan mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Milliy tarbiya umuminsoniy qadryatlardan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi bo'lgan yoshlar emas, balki, ijodkor, istedodi bilan ajralib turuvchi o'quvchilarni tarbiyalash zamon talabidir. Mamlakatimizda yosh avlodni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash nafosat tarbiyasining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Ikkinchi yo'nalish esa mumtoz musiqadir. Mumtoz musiqa na'munalari har tomonlama mukammallik kasb etishi bilan folklor musiqasidan farq qiladi. Mumtoz musiqa alohida yaratuvchi, ya'ni bilimdon bastakor tomonidan yaratiladi. Bilimli va mohir sozanda yoki xonandalar tomonidan ijro etiladi. O'zbek xalq mumtoz musiqasi o'zining mukammalligi va murakkabligi bilan boshqa xalqlar orasida alohida o'ringa egadir. Mumtoz muniqaning eng yirik shakli maqomdir. Maqom O'zbekistonning uchta yirik viloyatida mavjud bo'lib, Buxoroda "Shashmaqom", Xorazmda "Xorazm maqomlari", Farg'onada "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" deb yuritiladi. O'zbek musiqasining ijodiyoti yillar davomida turli janrlar bilan boyib kelgan. Musiqa san'atining har bir janri shunday mazmunni o'z ichiga oladiki, unda mamlakatning, xalqning, insoniyatning boshidan kechirgan u yoki bu davri xalqning yoki millatning ruhi ifodalanadi. Musiqaning keng ta'sirchan tarbiyaviy imkoniyatini o'rta asr mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar yuqori baholashganlar. Navoiy buyuk shoir mutafakkir olim, musiqachi, tarixchi, pedagog va mashhur davlat arbobi bo'lganligi barchamizga ayon. Shoir o'z asarlarida musiqa san'atining tarbiyaviy imkoniyatlarini yuqori baholaydi. U musiqa san'atida nihoyatda katta e'tibor qaratib, mazkur san'at turi kishilar ongi va ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi vosita sifatida qaragan. Bunda u ayniqsa xalq og'zaki ijodiyoti va professional musiqa asarlariga alohida urg'u beradi. O'zbek musiqa san'atining ildizlari qadim zamonlarga borib taqaladi. Tarix o'rta asrlarda talaygina atoqli musiqachila, shoirlar va san'atkorlarning nomlarini

saqlab qolgan. O'rta Osiyo musiqasi haqida qimmatli ma'lumotlarni IX asrdan buyon saqlanib kelayotgan yozma manbalardan ham olish mumkin. Musiqa ta'limiga nihoyatda kata ahamiyat bergan O'rta Osiyolik mashhur musiqachilar orasida qomusiy olim Muhammad Al-Farobiy alohida o'rin egallaydi.

Tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar va arxeologik qazilma topilmalari shundan dalolat beradiki, eramizdan avvalgi III asrda qariyb 2400 yil muqaddam Iskandar Zulqaynar O'rta Osiyoni zabt etganida yunonlar ajdodlarimiz bo'lmish va xorazmiylklarning boy musiqa madaniyatidan hayratda qonganlar. Ularning mashshoq honandalari ajdodlarimizning ajoyib va dilkash qo'shiq va kuylarini yuksak ijrochilik san'ati shuningdek xushnavo turli cholg'u asboblari o'rganib o'zlarining musiqa madaniyatini boyitganlar. Natijada ayrim cholg'u asboblari ovropa xalqlari amaliyotida qo'llanilib yangi ko'rinish va nomlanishda tarqalgan. Masalan, ud, dutor, gitara, argonik-arfa va boshqalar. Ajdodlarimiz qadimgi zardushtiy diniy kitobi "Avesto" yozuvlariga binoan xudolarga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan turli marosimlarda ham qo'shiqlar kuylagan. XI-XX asrlar davomida o'zbek xalqining madaniyati yangi cho'qqilarga erishdi. Ayniqsa pomiriylar zamonida o'zbek musiqa madaniyati yuksak rivojlandi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston xonliklari rus chorizm tomonidan bosib olina boshlandi, natijada musiqa madaniyatimizga Rossiya orqali Ovropea musiqasi ta'siri jarayoni boshlandi. Yuqorida takidlab o'tganimizdek, o'zbek xalqining musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega. Xalq ijtimoiy hayotda mavjud barcha sohalar qatori musiqa san'ati ham ajdodlarning bebaho merosidan bahramand bo'lmay turib taraqqiyotga erishish mumkin emas. Shu bois an'analarga sodiq qolish, musiqiy tariximizni chuqur anglash, biz va boshqa yoshlar istiqbolining qaroridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Jobborov, S.Begmatov, M.Aronova "O'zbek musiqa tarixi." Toshkent 2018
2. M.Jo'rayev "Folklorshunoslik asoslari." "Fon" 2009
3. O.Safarov "O'zbek xalq og'zaki ijodi." "Musiqa nashriyoti." 2010
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent 2005
5. T.Ye.Solomonova "O'zbek musiqa tarixi." Toshkent 1981
6. "O'zbek folklori" fanining information ta'minoti

WWW.literature.uz.

“MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TASNIFI”	
Karimova Sarvinoz Po'latovna, Ergasheva Feruza Muzaffar qizi MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDABOLALARNI MUSIQIY TARBIYALASH VA TA'LIM BERISH	768
Narimbayeva Lola Kuzibayevna, Ilesova Lazzat Asan qizi MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O'YIN FAOLIYATI ORQALI KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI	770
Saidqulova Gavhar Odiljon qizi, Jo'rayeva Manzura Akmal qizi MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOSHQARUVNI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	774
Narimbaeva Lola Kuzibayevna, Jumamurodova Shohzoda Ilhom qizi MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	777
Karimova Sarvinoz Po'latovna, Madraimova Asal Baxrom qizi YOSH AVLODNING MUSIQIY ESTETIKASINJ OSHIRISH XUSUSIDA	779
Karimova Sarvinoz Po'latovna, Mamadismanova Sabrina Axmadjon qizi OILA, TA'LIM MUASSASASI VA IJTIMOYIY BORLIQDA O'SIB KELAYOTGAN AVLODNI SHAKLLANTIRUVCHI MUHIM IJTIMOYIY INSTITUTLAR SIFATIDA	782
Muhiddinova Dilfuza Sherdor qizi, Raxmonqulova Anora MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA RIVOJLANTIRUVCHI O'YIN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA REFLEKSIV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	787
Muhiddinova Dilfuza Sherdor qizi, Xasanova Ruxshona Farxodovna PEDAGOGLARNING AKT (Axborot kommunikatsiya texnologiyalari) SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	790
Narimbayeva Lola Kuzibayevna, Masharifova Rayhona Abdulakimovna BOLALARNING TEATRLASHTIRILGAN FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ORQALI MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHI	793
Narimbaeva Lola Kuzibayevna, Musaeva Gulmira Muxammadali Kizi MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINING SHAKLLANISHI	797
Каримова Сарвиноз Пулатовна, Носиржонова Марина Дилкашбек МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ КЎЗИ ОЖИЗ БОЛАЛАРНИ МУСИҚИЙ КЎНИКМАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ	800
Saidqulova Gavhar Odiljon qizi, Odilbekova Ruzanna Quvondiq qizi MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIMYIY JARAYONLARNI REJALASHTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV	802
Kodirova Muyassar Eshmamat qizi, Ziyodullayeva Sabrina Sunnatullo qizi MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYA: KECHA VA BUGUN VA ERTA MISOLIDA	806
Kodirova Muyassar Eshmamat qizi GIPERAKTIVLIKNING MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOYIY VA FIZIOLOGIK SABABLARGA KO'RA KELIB CHIQISHI VA TASNIFLANISHI	810
Narimbayeva Lola Kuzibayevna, Rustambekova Aynissa Ravshan qizi TEATR FAOLIYATI ORQALI BOLALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNING RIVOJLANTIRISHI	816
Saidqulova Gavhar Odiljon qizi, Sultanova Sarvinoz Muzaffar qizi MAKTABGACHA TA'LIMDA MUSIQA TARBIYASI	819
Saidqulova Gavhar Odiljon qizi PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARI MAKTABGACHA TA'LIM TALABALARI O'RTASIDA MUSIQA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MECHANIZMLARI	821
Shariyeva Gavxar Turavoyevna, Salimboyeva Shoista San'atjon qizi BOLA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLA TILINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	825
Tursunboyeva Zuxra Umid qizi MAKTABGACHA YOSHDAGI TARBIYALANUVCHILARNI ATROF –OLAM BILAN TANISHTIRISH USHLBLARI	827
Xolmatova Salima Kuziboyevna, Bahtiyarova Ro'za Oybek qizi, Jamaliddinova Gulsanam Zokirjon qizi DIDAKTIK O'YINLARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY RIVOJLANTIRISHDAGIAHAMIYATI	832

Xolmatova Salima Kuziboyevna, Xasanova Ruhshona Farhodovna, Kenjabayevna Nafisa G'ayratovna MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SANASH FAOLIYATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	835
Xolmatova Salima Kuziboyevna, Rahmonqulova Anora Orifjon qizi, Xolmurodova Gulshoda Zafarovna MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNI ELEMENTAR MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	839
Xolmatova Salima Kuziboyevna, Olimova Zamira Mingyasharovna, Jiyanova Gulzira Normuminovna INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING MUSTAQIL TA'LIM ISHLARINI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATI	842
Xolmatova Salima Kuziboyevna, Sholpanova Aygerim Marxabayevna TALABALAR MUSTAQIL TA'LIM ISHLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI	847
Shariyeva Gavxar Turavoyevna, Yulchiyeva Navro'za Alisher qizi MAKTABGACHA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	851
Maripova Nodira Xamidovna, Akromaliyeva Madina Jaxongir qizi MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA TEATR SAHNALASHTIRISHNING TA'LIM-TARBIYAVIY AHAMIYATI	855
Xurvalieva Tarmiza Latiovna, Xursanova Fotima Orifjonovna, Xamrayeva Zuhra MAKTABGACHA TAYYORLOV GURUH BOLALARNI SAVODGA O'RGATISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	858
Xurvalieva Tarmiza Latiovna, Ulasheva Dilara Botir qizi MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLATIRISHNING TASHKILY PEDAGOGIK VA METODIK JIHLARI	861